

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qulyozma huquqida
UDK:336.657(5751)

DADABAYEV SHAVKAT XAMIDOVICH

**TOVAR - MODDIY ZAXIRALAR HISOBİ VA TAHLILINI XALQARO
STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08–Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari nomzodi,
professor v.b., F.T. Abduvaxidov

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I	TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBI VA TAHLILINI	
BOB.	TASHKIL QILISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	
1.1.	Tovar-moddiy zaxiralar va ularni hisobini yuritishning nazariy asoslari.....	13
1.2.	Tovar-moddiy zaxiralarni baholash tartibi va muammolari.....	29
1.3.	Tovar-moddiy zaxiralar tahlilini moliyaviy holat ko'rsatkichlari bilan bog'liqligining nazariy muammolari.....	45
II	TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI TASHKIL	
BOB.	ETISH AMALIYOTI VA UNI XALQARO	
	STANDARTLAR ASOSIDA	
	TAKOMILLASHTIRISH.....	
2.1.	Tovar-moddiy zaxiralar xarakatini hisobga olish uslubiyoti.....	61
2.2.	Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasini tashkil etish va uni takomillashtirish.....	74
2.3.	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovar-modiy zaxiralar hisobini takomillashtirish.....	84
III	TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR TAHLILINING	
BOB.	USLUBIY JIHATLARINI	
	TAKOMILLASHTIRISH.....	
3.1.	Tovar-moddiy zaxiralar tahlilini tashkil etish va uning axborot manbalari	95
3.2	Tovar-moddiy zaxiralari tahlili uslubini takomillashtirish.....	113
3.3.	Tovar-moddiy zaxiralari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning omilli tahlili.....	122
	XULOCA VA TAKLIFLAR	134
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	142

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sanoat ishlab chiqarish tarmog‘i ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga, ilmiy va texnik taraqqiyotga asosiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Sanoat tarmog‘ida qayta ishlash sohasi yuqori ulushga ega. Xalqaro taqqoslar shuni ko‘rsatmoqdaki, “dunyo mamlakatlarida 2023 yilda qayta ishlash sanoatining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi Fransiyada – 85 %, Germaniya Federativ Respublikasida – 77%, Italiyada – 76%, Rossiya Federatsiyasida – 68%, Qozog‘iston Respublikasida – qariyb 40% va O‘zbekiston Respublikasida 78,1 %ni tashkil etganligini ko‘rsatib o‘tish mumkin”¹. Ushbu sanoat ishlab chiqarish tarmog‘ida aylanma mablag‘lar, shu jumladan, tovar-moddiy zaxiralar(TMZ) asosiy o‘rinni egallaydi, shu sababli ularning hisobini xalqaro talablar darajasida tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli TMZlarni buxgalteriya hisobini tashkil etish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablar darajasida taqdim qilish va uning ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, tahliliy axborotlardan foydalanish natijasida sanoat tarmog‘ining samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xalqaro darajada sanoat ishlab chiqarish amaliyotida aylanma mablag‘lar tarkibida TMZlarning asosiy salmog‘i o‘rtacha 55-72 foizni tashkil etmoqda. Shu sababli TMZlarni hisobini to‘g‘ri yuritish, uni xalqaro talablarga moslash, ularni tahlil qilishni amalga oshirishda xalqaro tajribadan keng foydalanish alohida yondoshuvni talab etadi. Ushbu maqsadda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini qo‘llash va moliyaviy hisobotlarni shaffofligini ta’minlash imkoniyatini yaratadi hamda ulardan samarali foydalanishni tahlil qilish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Shu jihatdan, 2-sonli “Zaxiralar”, 15-sonli “Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushum”, 36-sonli “Aktivlarning qadrsizlanishi” MHXS va boshqa standartlarda TMZlarning holati, yetarliligi, ularning qoldiqlari, biznes rejadagi asosiy o‘rni kabi masalalar o‘z ifodasini topgan. Biroq, jahonda TMZlarni turlicha

¹<https://w3.unece.org>

talqini, ularni hisobda aks ettirish, baholash va tahlil qilishning uslubiy jihatlarini xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etish bilan bog‘liq ayrim masalalar hozirgacha o‘zining ijobiy yechimini topmagan.

O‘zbekistonda sement ishlab chiqaruvchi korxonalarda TMZlar nisbatan yuqori likvidli aktiv hisoblanib, ular ustidan aniq, tezkor hisobni tashkil qilish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahlilni amalga oshirish alohida masalaga aylanib qolmoqda. Xususan, TMZlarni buxgalteriya hisobini tashkil qilish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda uning texnologik xususiyatlarini hisobga olish, haqqoniy qiymatini baholash uslubi, ularning harakatini hisobga olishni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilangan tartibda tashkil qilish hamda moliyaviy hisobot shakllarida shu talablar asosida aks ettirilishi muhim masala hisoblanadi. Ayniqsa, keyingi yillarda O‘zbekistonda MHXS keng joriy etishda milliy hisob tizimini xalqaro tizimga moslashtirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda TMZlar hisobi va tahlilidagi axborotlarni xalqaro standartlar talabi darajasiga muvofiqlashtirish masalasi tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqcadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4022-sonli, 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida”gi 61-sonli buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 8 oktabrdagi “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risida”gi nizom 181-sonli buyrug‘i hamda mazkur sohaga oid yana bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.